

## ZO‘RAVONLIK UCHRAGAN XOTIN-QIZLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISH

*O‘zbekiston Milliy Universiteti o‘qituvchisi*

**Xolmurodov G‘ulom**

*O‘zbekiston Milliy Universiteti talabasi*

**Niyozova A‘loxon**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasi, turlari, uni keltirib chiqaruvchi asosiy sababalari va omillar, zo‘ravonlikdan himoya qilish kabi jihatlar o‘rganilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *zo‘ravonlik, tazyiq, himoya orderi, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi, jinsiy zo‘ravonlik, jismoniy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik.*

So‘ngi yillarda mamlakatimizda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik muammosi o‘rganish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Xotin-qizlarga nisbatan bo‘layotgan zo‘ravonlikni oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida 2019 yil 2 sentyabrda O‘zbekiston respublikasi “Xotin qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning[1] qabul qilinishi, bu muammoning ahamiyatli ekanligining yaqqol namunasidir. Bugungi kunga kelib, xotin-qizlarga nisbatan bo‘layotgan zo‘ravonlik va tazyiqlar nafaqat bizning yurtimiz balki butun dunyoning global muammosiga aylanib ulgurgan.

Bu mavzuni o‘rganar ekanmiz o‘z o‘zidan zo‘ravonlik nima, nima sababdan yuzaga keladi va uning yechimi qanday degan savollar yuzaga kelishi tabiiy.

Zo‘ravonlik bu - insonlarga ruhiy, jismoniy, va ma‘naviy zarar yetkazish, ularga jismoniy kuch ishlatib jarohatlashdir.

Tazyiq - sodir etilganligi uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat, shilqimlik.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi - o‘ziga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etilishi tahdidi ostida bo‘lgan yoki tazyiq va zo‘ravonlik natijasida jabrlangan ayol jinsidagi shaxs.

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) tomonidan zo‘ravonlikka quyidagicha tarif beriladi: o‘limga, psixologik zararga, noto‘g‘ri rivojlanishga yoki mahrumlikka sabab bo‘luvchi o‘ziga boshqa shaxsga yoki jamiyatga qarshi har qanday kuchni qastdan qo‘llash, tahdid qilish yoki jarohat yetkazish zo‘ravonlikdir[2].

Agar zo‘ravonlik mavzusini chuqur o‘rganadigan bo‘lsak, bu muammoning asosiy jabrlanuvchilari xotin- qizlar ekanligini guvohi bo‘lamiz “Oila va xotin- qizlar” ilmiy-tadqiqot inistituti Yurtimizning 5 ta hududida 6 oylik muddat ichida Sotsiologik tadqiqot olib boradilar. Bu jarayonda zo‘ravonlikka uchragan 18- 34 yosh oralig‘idagi 420 nafar respondent ishtirok etdi. Ayollarning 39.4 % zo‘ravonlikning asosiy sababi turmush o‘rtog‘iga gap qaytarish oqibatida yuzaga kelganligini aytib o‘tishadi[3].

Xotin-qizlarga nisbatan bo'layotgan zo'ravonlikni kamaytirish maqsadida 2019 yil 3 sentyabrda O'zbekiston respublikasi "Xotin qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunda O'zbekistonda ayollarni kamsitilishiga va ayollarga zo'ravonlik ko'rsatishning barcha shakllariga nisbatan qonuniy chora tadbirlar belgilab qo'yilganini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu qonunga ko'ra xotin qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish maqsadida himoya orderi tizimi yaratildi.

Himoya orderi - tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi, xotin-qizlarga tazyiq o'tkazayotgan yoki ularga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxsga yoxud bir guruh shaxslarga nisbatan ushbu Qonunda belgilangan ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanilishiga sabab bo'ladigan hujjat.

Yurtimizda xotin-qizlarga qaratilayotgan shuncha e'tibor va ularni himoya qilish kerakligi to'g'risidagi bir qancha qonunlarga qaramasdan har qadamda ularning huquq va erkinliklarini poymol bo'layotganligiga duch kelishimiz mumkin. Jamiyatimizda zo'ravonlikka uchragan ayol va qizlarga nisbatan bo'ladigan munosabat ularning kamsitilishi va ularga nisbatan bo'ladigan noto'g'ri fikrlar bunga yaqqol misoldir. Ayollarni huquqini himoya qilish, uning erkinligini ta'minlash, kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik kerak deya qancha jar solinmasin bu harakatlar shunchaki amal qilinmaydigan qoida kabi qolib ketayotganligi achinarli holatdir.

Mamlakatimizda zo'ravonlik holatlarni kamaytirish uchun avvalam bor zo'ravonlik qurboni bo'lgan xotin - qizlarga nisbatan bo'ladigan yomon munosabatlarni o'zgartirish, xalqmiz ongiga o'rnanish qolgan tushunchalarni yo'qotishimiz zarur. Bu ayollarimizning jamiyat oldida o'z huquqlarini emin-erkin talab qila olishiga imkon beradi. Hozirgi kunda zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayollar jamiyatning salbiy fikrlari yu ularga nisbatan otiladigan tana toshlaridan qo'rqib sodir bo'lgan zo'ravonlik holati haqida his qanday shikoyat bildirishmaydi, bu esa jinoyatni sodir qilgan shaxsning hech qanday javobgarlikka tortilmay qutilib qolishiga va bu holatni his qilmasdan qo'rqmagan holda takror va takror sodir bo'lishiga olib keladi. Bunday holat esa yurtimizda zo'ravonlik ayniqsa xotin-qizlarga nisbatan bo'ladigan zo'ravonlikni avj olishiga sabab bo'ladi. Zo'ravonlik muammosini kamaytirish uchun biz avvalambor xotin-qizlarga jamiyatdagi salbiy qarashlariga e'tibor qilmasdan o'z huquqlarini himoya qilishga qo'rqmaslikni ular doim davlat himoyasi ostida ekanlarini uqtirishimiz zarur.

Bir yil ichida zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin- qizlari 40 mingga yaqinni tashkil etadi va bu jabrlanuvchilarni barchasiga himoya orderi bilan ta'minlandi. Afsuski bu ayol va qizlarning 87% o'z yaqinlari tomonidan zo'ravonlik va tazyiqqa uchraganliklarini ta'kidlashadi. Xotin-qizlar jinsiy, jismoniy va ruhiy zo'ravonliklarga uchrar ekan ko'p hollarda jamiyat va xalq buning barchasiga ayollarning o'zi aybdor degan fikrlarga qo'shilishadi.

Xotin-qizlar hozirgi kunda duch kelayotgan zo'ravonlik quydagicha turlarga bo'lish mumkin:

Jinsiy zo‘ravonlik - xotin-qizlarga nisbatan ularning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli, shuningdek zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash;

Jismoniy zo‘ravonlik - xotin-qizlarga nisbatan og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari yyetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta‘sir o‘tkazish yoki bunday ta‘sir o‘tkazishning o‘zga choralari qo‘llash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli;

Iqtisodiy zo‘ravonlik - xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ish joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo‘ravonlik shakli, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta‘minlanishga bo‘lgan huquqini, mulk huquqini, ta‘lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik);

Ruhiy zo‘ravonlik - xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha‘nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar yetkazgan harakat.

Hozirgi kunda ayollarni huquqlari to‘g‘risida gap ochadigan bo‘lsak, bu muammolarni yoqtirmaydigan insonlar topiladi va bu nizolarga ayollarning o‘zi aybdor degan qarashni uqtirishga urinadiganlar ko‘plab topiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda deyarli har oy ruhiy, jismoniy zo‘ravonlikka uchragan ayollar haqida turli ma‘lumotlar tarqaladi omma bo‘lsa bu muammoni hal etish choralari izlash o‘rniga ikki guruhga bo‘linib olib muhokama qilishadi, bu ham ayollarning tazyiqqa uchrashining bir ko‘rinishidir.

Zo‘ravonlik va tazyiq qurboni bo‘lgan xotin va qizlarning hayotini yaxshilash borasida so‘z ketar ekan, ularning psixologiyasi bilan shug‘ullanish zarur deb bilaman. Sababi zo‘ravonlik va tazyiqdan yetarlicha zarba olgan shaxs, ommaning fikri o‘ziga nisbatan noto‘g‘ri qarashlar natijasida o‘zidan nafratlanish hisi paydo bo‘ladi. Bu esa shaxsning hayotga bo‘lgan qiziqishining so‘nishiga olib keladi. Insonlardan, jamiyatdan o‘zini olib qochish, o‘z fikrini erkin bildirish hamda o‘z imkoniyatlaridan to‘la to‘kis foydalanishdan qo‘rqish kabi holatlar yuzaga keladi. Bunday holatlar yuzaga kelmasligi uchun xotin qizlar o‘z haq-huquqlarini bilishi doimo davlat himoyasida ekanliklarini anglashi zarur hisoblanadi. Shu sababli keyingi yillarda yurtimizda ayol va qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularni kasb - hunarli qilish va ularning qiziqishlari bo‘yicha hunarlarga yo‘naltirish hamda ularni turli siyosiy jarayonlarda ishtirokini ta‘minlash borasida ezgu say-harakatlar amalga oshirilmoqda. Xususan



2023 yil 5 martda “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yana-da takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinishi ham xotin-qizlarni himoya qilish va ularni qo‘llab-quvvatlashdagi muhim qadam hisoblanadi. Mazkur qonunga ko‘ra xotin-qizlarni yurtimizdagi barcha siyosiy, iqtisodiy ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faol ishtirok etish huquqi va ularni tadbirkorlik qobiliyatini qo‘llab quvvatlash, kerakli bilim olishi va bandligini ta‘minlash choralari hamda “Ayollar daftari”ni shakillantirib unga kiritilgan ayollarni muammolarini hal qilish barcha ijtimoiy yordamlarni berilishi, qiziqishlarini o‘ragangan holda ularni kasbga yo‘naltirish ishlari yana-da jadallashuviga sabab bo‘ldi. Yurtimizda ayollarning huquqlarini o‘zlari himoya qila olishi uchun turli say-harakatlar amalga oshirilib qolmay bu harakatlarga ayollarning o‘zi ham jalb qilinib kelinmoqda.

Tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish - xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etishga olib keladigan sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga, jamiyatda xotin-qizlarning zo‘ravonlikdan xoli bo‘lish huquqlaridan xabardorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi.

Yurtimizda bugungi kunga kelib bunday muammolarni bartaraf etish uchun ko‘plab chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda va xotin-qizlar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-561-son, 02.09.2019 yil.
2. <https://www.internationalegg.com/uz/our-work/industry-representation/world-health-organization-who/>
3. <https://moiti.uz/>